


Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Isoning Mo'jizalari



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
E. Frischbutter; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2015 Bible for Children, Inc.
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Iso ko'p mo'jizalar ko'rsatgan. Bu mo'zijalar Iso Xudoning O'g'li ekanini ko'rsatuvchi belgi edi.




Uning birinchi mo'jizasi to'y
bazmida sodir bo'ldi.



Muammo shunda ediki, to'yda
hammaga yetarli sharob yo'q edi.



Isoning onasi Maryam Unga bu muammo haqida aytdi, so'ngra xizmatkorlarga Iso buyurgan hamma narsani qilishni uqtirdi.



"Bu xumlarni suv bilan
to'ldiring," dedi Iso. "Suv?"
deb ajablanishgan balki ular.
Ha, Iso suv so'ragan
edi.



Keyin Iso bir
xizmatkorga
xumdagi suvdan
olib ba'zm
boshqaruvchiga
olib borib,
uni tatib
ko'rishini
aytdi.



Suv sharobga
aylangan
edi. Yaxshi,
eng yaxshi
sharobga
aylangandi!



Xizmatkorlar hayratda qolishdi. Iso suvni sharobga aylantirgan edi.




Faqat Xudo
bunday mo'zizani
qilishga qodir.



Iso boshqa
mo'jizalarni ham
ko'rsatgan edi.





Bir kuni kechda Iso
va Uning shogirdlari
Butrusning uyiga
borishdi.



Butrusning qaynonasi
isitmalab yotgan edi.



Iso u ayolning qo'liga tekkanida,
shu zahotiy oq u shifo topdi. Ayol
o'rnidan turib Iso va shogirdlarga
xizmat qildi.



O'sha kuni
kechda eshik
oldida butun
shahar
toplånganga
o'xshardi.



Barch xasta
insonlar -
ko'zi ojizlar,
karlar,
soqovlar va
nogironlar
kelishgan
edi.



Iso, Xudoning O'g'li ularga yordam
bera olardi. Iso ularga yordam
berdi.



Uning oldiga kelgan barcha shifo topdi. Butun umr hassaga suyanib yurganlar endi yura, yugura va sakray olishardi.





Boshqalar,
maxov
kasaliga
chalingarlar
ham kelishdi.



Iso ularni
shifolaganda
ular sog' va
pok bo'lishdi.



Yovuz ruhlar tufayli qiynalganlar
ham
Isoning
oldiga
kelishdi.
Iso yovuz
ruhlarga
tark
etishni
buyurdi.



Yovuz ruhlar Isoning
soʻziga
boʻysunib
ketganda,
gʻamgin
odamlar
tinch va
xursand
boʻlishdi.



Olomon ortida to'rt kishi do'stini
Isoning oldiga keltirishga urunishdi.



Ammo ular Isoga yaqin kelisholmadi.
Endi ular nima qilishadi?



To'rt sodiq do'st uyning
tomini ochib kasal
odamni pastga
tushirishdi.




Endi u Isoning
yaqiniga keldi.




Iso uning
to'rt do'sti
imonga ega
ekanini
ko'rdi.



U kasal odamga
shunday dedi,
"Sening
gunohlaring
kechirildi.
To'shagingni
olib yur."



U odam oʻrnidan
sogʻlom va
baquvvat
boʻlib turdi.
Iso unga
shifo
bergan
edi.



Shundan so'ng, Iso shogirdlari bilan
qayiqda edi.

Dengizda
qo'rqinchli
bo'ron
ko'tarildi.





Iso uxlab
yotgan edi.
Qoʻrqib ketgan
shogirdlar Uni
uygʻotishdi.





"Rabbim, bizni
qutqar," deb
qichqirishdi
ular. "Biz
halok
bo'lyapmiz!"





"Sokin bo'l," to'liqlarga buyurdi
Iso. Shu zahotiy oq dengiz
tinchlandi.





“Bu qanday odam ekan?”
deb shivirlashdi shogirdlar.
Hatto shamol va
dengiz Unga
bo‘ysunadi.



Ular Iso Xudoning O'g'li ekaniga
imon keltirishdi, chunki qilgan
mo'ziralari Isoning
ulug'vorligini
ko'rsatdi.



Isoning shogirdlari bilishmas ediki,
insonlar orasida Xudoga
xizmat qilar ekan,
Iso bundan ham
buyukroq
mo'jizalarni
ularga
ko'rsatar
edi.



Isoning Mo'jizalari

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 8-9 boblar, Mark 1-1 boblar,
Mark 4 bob, Luqo 4 bob, Luqo 8 bob,
Yuhanno 2 bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman,
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,
men Senga itoat qilishim uchun va Sening
farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

